

**IDEOMA VA FRAZIOLOGIK BIRLIKLARNING
LISONIY XUSUSIYATLARI**

Matazimova Hamroxon

Is'hoqon Ibrat nomidagi Namangan Davlat

Chet tiller instituti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada fraziologiya haqida umumiy tushuncha,ular haqida olimlar olib borgan ish, vazifalari,xususiyatlari,adabiyotlarda qo'llanilishi,va ideoma haqida umumiy ma'lumotlar hamda lisoniy tushuncha birliklari haqida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Frazalogiya, ideoma,lisoniy, tilshunoslik, lug'at, atama, frazalodik birikma,lingvistika.

Abstract: in this article, the general understanding of phraseology, the work done by scientists, their tasks, features, use in literature, and general information about idioms and units of linguistic concepts is revealed.

Key words: Phraseology, ideoma, linguistics, linguistics, dictionary, term, phraseological combination, linguistics.

Аннотация: в данной статье раскрываются общие представления о фразеологии, проделанной учеными работе, их задачах, особенностях, использовании в литературе, а также общие сведения об идиомах и единицах языковых понятий.

Ключевые слова: фразеология, идеома, языкознание, языкознание, словарь, термин, фразеологическое сочетание, языкознание.

Bugungi kunda umumtilshunoslikda alohida soha sifatida shakllanib ulgurgan va o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lgan ideoma frazeologiya bo'limining ham o'z shakllanish va taraqqiyot bosqichlari mavjud. Frazeologiya aslida □ tilshunoslikning kichik sohasi bo'lib, fraza □ ibora, logos □ ta'limot degan ma'nolarni anglatadi. Frazeologiya atamasi asosan ikki ma'noda ishlatiladi:

1) tilning frazeologik tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi;

2) shu tilning frazeologizmi majmui. Frazeologiya lug'atlarning nafaqat eng rangbarang, balki eng demokratik qatlami hamdir va bu qatlam asosan «jonli» nutq vositasida boyiydi. Frazeologiya dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo'lgan. Ma'lum bir asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda turg'un so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolgan. Bunda o'sha tillarda mavjud bo'lgan frazeologizmlar o'rganila boshlangan. Frazeologiya atamasi dunyo filologiyasida 1558-yilda ingliz adabiyotshunos olimi Neandr tomonidan birinchi marotaba qo'llanilgan.[1] U badiiy asarlarni tarjima qilar ekan, shu atamani ishlatishga majbur

bo'lgan. Shu bilan bir qatorda esa, frazeologiya ilmining asoschisi shveytsariyalik olim Charl Ballidir degan malumotlar ham uchraydi. U o'zining «Frantsuz stilistikasi» (1909) nomli asarida so'z birlashmalari, ya'ni frazeologik birliklarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan. Charl Balli frazeologiya atamasini fanga kiritgan bo'lsada, bu atama Amerika va G'arbiy Yevropa tilshunoslarining ishlarida o'z aksini topgan. Balli frazeologiyani stilistika tarkibiga kiritadi.[2] Barcha tillarda frazeologiya leksikologiyaniing bir bo'lagi sifatida o'rganilardi. Tilshunoslikning rivojlanishi jarayonida frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida qabul qilindi va o'rganilib kelinmoqda. Frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida o'rganish masalasi atoqli rus tilshunosi Y.D.Polivanov tomonidan ilgari surildi. Uning ta'kidlashicha, leksika alohida so'zlarning ma'nosini, morfologiya so'zlarning shaklini, sintaksis esa so'z birikmalarining shaklini o'rganadi. Uning fikricha, ana shu til sohalari barobarida ma'lum bir so'z birikmalarining ma'nosini o'rganuvchi alohida sohaga ham ehtiyoj seziladi. Y.D.Polivanov frazeologiyaniing tilshunoslikda mustahkam o'rin egallashiga ishonchi komil edi va shunday bo'ldi ham. Frazeologiyani tilshunoslikning mustahkam sohasi sifatida o'rganish masalasi rus olimi V.V.Vinogradov tomonidan ilgari surilgan. Vinogradovning buyuk xizmati shundaki, u frazeologik birikmalarni semantik jihatdan 3 guruhga ajratdi.

1. frazeologik chatishmalar (phraseological fusions).
2. frazeologik qo'shilmalar (phraseological units).
3. frazeologik birlashmalar (phraseological collocations or combinations). [3]

Ammo uning xizmatlariga qaramay, frazeologiya leksikologiyaniing bir bo'limi sifatida qolaverdi, chunki frazeologiya tilshunoslikning mustaqil bo'limi bo'la olishini isbotlovchi asosiy tushunchalar ishlab chiqilmagan edi. Shunday qilib, frazeologiyani tilshunoslikning bir bo'limi sifatida o'rganish davom etdi. Y.D.Polivanov va V.V.Vinogradovdan so'ng birinchi bo'lib frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida o'rganish masalasini ilgari surgan olim B.A.Larin edi. U frazeologiya sohasida yetarlicha ilmiy ishlar qilinmaganini ta'kidlab o'tdi.[4]

Frazeologiya □ til durdonasidir. Bunda xalqning tarixi, turmushi va madaniyatining o'ziga xosliklari aks etadi. Frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy xususiyatlari mujassam bo'ladi. Ingliz frazeologiyasi boy va uning tarixi uzoq. Bunda sof ingliz frazeologizmlar qatorida chetdan qabul qilingan, ya'ni internatsional frazeologizmlar ham talaygina. Frazeologizmlar chuqur va boy ma'noga ega bo'lishi bilan birqatorda nutqqa alohida ko'rk, tarovat bag'ishlaydi, ammo uni faqatgina tilga «bezak» yoki, aksincha, «ortiqcha» deb eskirgan qarash bilan qarab bo'lmaydi. Dunyoda iboralarsiz tilning o'zi yo'q, xususan ingliz frazeologiyasi ham juda boy vao'zining ko'p asrlik tarixiga ega.

Frazeologiya □ o'ta murakkab hodisa va uni o'rganish o'ziga xos uslubni taqozo etadi, shuningdek, boshqa bir qator leksikologiya, grammatika, stilistika,

fonetika, tarix, mantiq va mamlakatshunoslik kabi fanlar ma'lumotlariga murojaat qilgan holda o'rganishni talab etadi. Frazeologiyaning ba'zi muamolari bo'yicha mutaxassislarning fikrlari turlicha. Binobarin, frazeologiya sohasida ilmiy ish olib boruvchi tilshunoslarning oldida turgan vazifalardan biri □ mavjud fikrlarni umumlashtirib, ularni birlashtirib yagona to'g'ri fikrni izlab topimdan iboratdir.[5]

Frazeologiyaning asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi xususiyatini o'rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdoshligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo'llanuvchi so'zlar va ularga xos ma'nolarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; frazeologizmlarning so'z turkumlari bilan o'zaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniqlash; frazeologik birliklar tarkibida so'zlarning yangi ma'nolari hosil bo'lishini o'rganish va boshqalar. Frazeologiya frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni o'rganish, tasniflash va lug'atlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. Unda ishlab chiqilgan o'ziga xos, xilma xil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktur semantik, grammatik, vazifaviy uslubiy asoslarga ko'ra tasnif etiladi. Struktur semantik tasnif prinsipi asosiy hisoblanadi. Frazeologiyaning alohida fan sifatida o'rganilishi bir necha asrlarni o'z ichiga oladi. Xususan, rus tilshunosligida tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab frazeologik muammolarga qiziqqa boshlashgan. Jumladan, M.V. Lomonosov rus adabiy tili lug'atini tuzar ekan, bunda so'zlar bilan bir qatorda «xalq maqollari», «idiomatizmlar» va frazemalar ham o'z ifodasini topgan bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlagan edi. XX asrning 60-80 yillariga kelib chet el adabiyotida, jumladan jahon adabiyotida ham frazeologiya sohasiga bo'lgan qiziqish tez sur'atlar bilan o'sdi. G'arb hamda Amerika tilshunosligida shu vaqtga qadar frazeologiyaga bag'ishlangan alohida asar yo'q edi. Umuman «frazeologiya» termini ilk marotaba Sharl Balli tomonidan «Precis de stylistique» asarida qo'llanilgan.[6] Frazeologiya sohasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shvetsar-fransuz tilshunosi Sharl Balli hisoblanadi. Frazeologik birliklar tilning lug'at tarkibini tashkil qilguvchi, mazmunan bitta so'zga teng birliklar bo'lgani uchun ko'p yillar davomida leksikologiya tarkibida o'rganilib kelingan. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, FBlarning so'zga ekvivalentligi alohida tahlil qilinishi lozim bo'lgan masalalardandir. Sharl Balli ta'limotiga binoan FBlarning eng muhim belgisi yagona bir so'z bilan sinonimik munosabatga kirisha olish, olmasligidadir. Bunday so'zni Sharl Balli so'z-identifikator deb atagan va bunday o'zgarishlarni FBlarning ichki yaxlitgi belgisi sifatida talqin qilgan. Shuningdek, tilni frazeologik fondini tashkil qiluvchi maqol va matallar identifikatori faqatgina gaplar bo'lishi mumkinligini ham esdan chiqarmaslik lozim. Masalan, Aide-toi, le Ciel t'aidera, il n'y a que le premier pas qui coûte. Inglizcha: Help yourself, heaven will help you, there is only the first step that costs. Frazeologiyani tilning xazinasiga qiyoslasak bo'ladi. Chunki aynan u xalqning

tarixini, madaniyati va o'ziga xosligini ko'rsata oladi. Frazologizmlar asosan millat an'analari-yu, urf-odatlarini, o'zida mujassamlashtiradi. Ammo fransuz tili frazeologiyasida milliy an'analarni ifodalab keluvchi FBlar bilan bir qatorda internatsional frazeologizmlarni ham uchratishimiz mumkin. Ba'zi FBlarda arxaik elementlar ham saqlanib qolgan.[7]

Idioma (grekcha: ἴδιος — „xususiyat“, „o'ziga xoslik“) — frazeologizmlar turi; muayyan bir tilga xos bo'lib, boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo'lmaydigan nutq birligi yoki ibora: „dumi hurjun“, „semizlikni qo'y ko'taradi“, „tili bir quloch“ kabi. Idioma so'z birikmalaridan: („ikki qo'lini burniga tiqib“, „butun mahallani boshiga ko'tarmoq“), etimologik va tarixiy ma'lumot talab etuvchi so'zlardan („gap desang qop-qop, ish desang Ko'hi Qofdan top“, „Daqqi Yunusdan qolgan“ va hokazo), etimologik isbotlash, asoslash qiyin bo'lgan so'z va iboralardan („oyog'ini qo'liga olib“, „biti to'kildi“) iborat bo'lishi mumkin. Idiomalar, odatda, ko'chma ma'noga ega bo'ladi va badiiy adabiyotda kinoya, krchi-riq ma'noli obrazlilikni yaratuvchi vositalardan biri sifatida qo'llanadi. Idiomalarni boshqa tilga o'girishda ularning o'sha tildagi muqobilini topish kerak bo'ladi. Masalan, rus tilidagi „Kak ni kormi volka, on vsyo v les smotrit“ idiomasi o'zbek tilidagi „Qazisan, qartasan, oxir aslingga tortasan“ idiomasi mazmunan mos keladi. Tilda bunday muqobil idioma topilmasa, uning mazmuni erkin yoki so'zma-so'z tarjima qilinadi. [8]

Lisoniy birliklarning ma'lum chiziqda ketma-ket bog'lanishi ikki elementni hech qachon bir vaqtda talaffuz qilishga imkon bermaydi. Muayyan cho'ziqlikka ega bo'lgan ikki va undan ortiq elementlarning ketma-ket munosabati ketma-ketlik (sintagmatik) munosabat sanaladi. Masalan, ishchilarga so'z shakli tarkibidagi ish-chilarga morfemalari bir qatorda ketma-ket joylashadi. Bundan ketma-ketlik munosabati faqat nutqqa xos degan xulosaga kelmaslik kerak. Ketma-ketlik munosabati imkoniyat va voqelik dialektikasini o'zida mujassam qilgan holda tilga ham, nuqqa ham xosdir. Lisoniy birliklar deb lingvistik xabarlarini tahlil qilish mumkin bo'lgan birliklarga aytiladi. Ba'zi olimlar til birliklariga nutqqa xos birliklarni ham qo'shib tavsif qilishadi chunki tilshunoslikda til va nutq bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Ba'zi olimlar esa til va nutq birliklarini bir-biridan ajratishadi. Lekin haligacha tilshunoslikda til va nutq birliklarini belgilashda aniq o'lchov mavjud emas. Ko'pgina tilshunos olimlar lisoniy birliklar sifatida fonema, morfema va leksemani, nutq birliklari sifatida esa tovush, harf, so'z, so'z birikmasi, gap va

matni e'tifof etishadi. Lisoniy birliklarning eng kichigi fonema hisoblanadi va uning vazifasi so'zlarning ma'nosini farqlashdir. Fonemani boshqa mayda qisimlarga ajralmadi. U tildagi eng kichik birlik bo'lishiga qaramasdan, katta vazifa bajaradi. Hamma til birliklarining ichida fonema mavjuddir. Fonema nutqda tovush yoki harf

sifatida voqelanadi. Hamma tovush yoki harf fonema bo'la olmaydi. So'zlarda ma'no farqlashga xizmat qilayotgan tovushgina fonema bo'la oladi.[9]

Yuqorida ta'kidlaganimizdek lisoniy birliklar til birliklaridan tubdan farq qilib, ular o'z ichiga fonema, morfema, leksemani oladi. Bu lisoniy birliklar ishlatilish o'rni, vazifasi, tuzilishiga ko'ra bir biridan farqlidir. Fonema lisoniy birliklarning eng kichigi bo'lib, so'zlarning ma'nosini farqlashga xizmat qilib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Алехина А.И. Фразеологическая антонимия в современном английском языке: автореф. дис. канд. филол. наук. - М., 1968. - 23 с.
- 2.Алехина А.И. Фразеологическая единица и слово. - Минск, 1991.
- 3..Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии - Л., 1963.
- 4.Аюпова Р.А. Связь фразеологической антонимии с пейоративной мелиоративной оценочностью // Русская и сопоставительная филология: состояние и перспективы: междунар. науч. конф., посвященная 200-летию Казан.ун-та (Казань, 4-6 окт. 2004 г.): тр. и материалы / под общ. ред. К.Р.Галиуллина.- Казань, 2004. - С. 100-101.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Voqiyeva G., Qurbonova M., va boshqalar Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: 2009.
6. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. -Toshkent: O'qituvchi, 1993.
7. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -Toshkent: O'qituvchi, 1995.
8. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. - Toshkent: Fan, 2008.
- 9.Федуленкова Т.Н. Английская фразеология. – Архангельск, 2000.132с
- 10.Кунин А.В. “Курс фразеологии современного английского языка”. – М.: 1986.-В.187Norrick N.R. How proverbs mean: semantic studies in English proverbs / Norrick N.R. - Berlin; New York: Mouton, 1985. - 213 p.;